



## O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING DAVLAT TOMONIDAN HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING DOLZARBLIGI

**Aliyeva Marjona Obid qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti biznes huquqi yo'nalishi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10212046>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma'qullandi: 24- November 2023 yil

Nashr qilindi: 28-November 2023 yil

### KEY WORDS

*elektron tijorat, elektron to'lov, raqamli iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalar, davlat siyosati, elektron tijorat subyektlari va boshqalar.*

### ABSTRACT

*Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari jamiyatimizning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Axborot texnologiyalarini joriy qilish tufayli ish yuritish madaniyatining elektron ko'rinishi shakllanmoqda. Jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangi turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish, elektron tijorat, elektron shartnoma, elektron to'lovlar tizimi va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar samaradorligini oshirish uchun keng shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu maqolada elektron tijoratning O'zbekistondagi holati, uni davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishini takomillashtirishning zarurati, elektron tijorat sohasining davlat siyosatidagi asosiy yo'nalishlari, shuningdek, mamlakatimizda elektron tijoratning to'laqonli bozorini yaratishga to'siq bo'layotgan muammo va kamchiliklar va ularni bartaraf etish uchun bir qancha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyot sohasiga keng joriy etilishi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida tovar va xizmat ko'rsatishdagi aloqalarning yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Ayni paytda O'zbekistonda elektron tijoratni xo'jalik texnologiya jarayonlariga faol joriy etish va undan samarali foydalanish, mijozlarning internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali interaktiv xizmat ko'rsatishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy integratsiyalashuv va globallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan, kichik biznes vakillari va tadbirkorlarning o'z faoliyatida elektron to'lov va elektron tijoratni joriy etishi ularning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga milliy iqtisodiyotda yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishlariga sabab bo'lmoqda. Ma'lumot o'rnida shuni qayd etish lozimki, so'nggi bir necha yil ichida elektron tijorat *global chakana savdoning* ajralmas qismiga aylandi. Boshqa ko'plab sohalar singari, tovarlarni sotib olish va sotish Internet paydo bo'lishidan keyin jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va zamonaviy hayotning davom etayotgan raqamlashuvi tufayli butun dunyodagi iste'molchilar endi onlayn tranzaksiyalarning afzalliklaridan foydalanmoqda. Dunyo bo'ylab Internet orqali buyurtmalar tez sur'atlar bilan o'sib borayotgani sababli, butun jahonda 5

**milliarddan** ortiq internet foydalanuvchilari onlayn xaridlarni amalga oshirishi kutilmoqda. **2022-yilda chakana elektron tijorat** savdosi global miqyosda **5,7 trillion** AQSh dollaridan oshdi va kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yangi cho'qqilarga chiqishi kutilmoqda. O'zbekiston Respublikasining statistika portali ma'lumotlariga asosan, yurtimizda elektron tijorat va chakana savdo hajmlarini yildan yilga o'sishi kuzatilgan bo'lib, unga ko'ra, 2022-yilda elektron tijorat savdo hajmi 2021-yilga nisbatan 1.8 barobar oshib, chakana savdo hajmining 4 foizdan (10886.8 mlrd. so'm) ortiqroq ulushini tashkil etgan. Guvohi bo'lganimizdek, ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda elektron tijorat sohasi yildan yilga rivojlanayotganligidan va ushbu sohada qator yangiliklar va islohotlar amalga oshirilishi kerakligidan dalolat bermoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ma'lumki, har bir huquqiy munosabat qaysidir qonunchilik normasi orqali tartibga solinadi. Shu o'rinda elektron tijoratning tartibga solinishini xalqaro qonunchilik hujjatlari misolida tahlil qiladigan bo'lsak, **"Elektron tijorat direktivasi"** – Yevropa Ittifoqining elektron tijorat qonunchiligining markaziy qismi hisoblanib, u 2000-yilda qabul qilingan va keyinchalik rivojlanayotgan raqamli landshaftlarga moslashish uchun yangilangan. Ushbu hujjat Yevropa Ittifoqida transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan onlayn xizmat ko'rsatuvchi provayderlar uchun asosiy tamoyillarni belgilaydi.

Xususan, mamlakatimizda ham elektron tijorat sohasidagi munosabatlarning normativ-huquqiy asoslari yaratilgan. "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida", "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida", "Elektron tijorat to'g'risida"gi va boshqa Qonunlar ana shular jumlasidandir. Ushbu huquqiy hujjatlar asosida elektron bank hujjat aylanishi, elektron plastik kartochkalar kabi tizimlar amaliyotga izchil joriy etilayapti. Barchaga ma'lumki, keyingi yillarda, yurtimizda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Natijada elektron tijoratning ahamiyati tobora oshib, aholining ushbu soha xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari yuksalib borayapti. Shak-shubhasiz, elektron tijorat bozorini taraqqiy toptirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanib, tegishli mexanizmlarni kengroq joriy qilish, eng avvalo, elektron tijorat sohasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6079-sonli Farmonining qabul qilinishi, shuningdek mazkur Farmonning 2.3.bandida "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" sifatida elektron tijorat va elektron to'lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog'i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko'lamlarini oshirish, elektron tijorat va elektron

to'lovlar tizimini yanada rivojlantirish kabi chora tadbirlar belgilangan<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham ushbu soha rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, normativ-huquqiy hujjatlar elektron tijoratni rivojlantirish uchun yangi huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va texnik sharoitlar yaratadi. U tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu qarorda elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to'lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish, elektron tijoratning rivojida muhim rol o'ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash va texnik yangilashni ta'minlash, logistika markazlarini (fullfilment) yaratish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish, axborot texnologiyalarini va pochta aloqasi obyektlarida avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etish, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish, jismoniy shaxslarga Internet jahon axborot tarmog'i orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni to'lashni tashkil etish jarayonini osonlashtirishga imkon beradigan to'lovlar agregatorlarini rivojlantirish, transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini qulay va o'z vaqtida eksport qilishni ta'minlash, bitta savdo maydonchasida keng ko'lamli bank va bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni (qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, sug'urta va boshqalar) taqdim etishga yo'naltirilgan moliyaviy supermarketlarning biznes modelini yaratish, tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish ko'lamini va sifatini oshirish, elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash o'quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan, chet eldagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shuningdek, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish, elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi subyektlarning tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni QR to'lovlari texnologiyasi va NFC texnologiyalarini joriy qilish, jumladan mobil qurilmalar orqali to'lovlarni qabul qilish orqali zamonaviy va qulay bo'lgan masofaviy usullarda qabul qilish imkoniyatini yaratish, davlat sektori, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xususiy sektor o'rtasidagi yaqin hamkorlikda elektron tijorat va raqamli to'lov platformalarini rivojlantirish va kengroq foydalanishga ko'maklashish kabi tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan<sup>2</sup>.

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, statistik va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi dunyo hamjamiyatining zamonaviy rivojlanishi bevosita axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan Internet tarmog'i bilan uzviy bog'liqdir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va jamiyat hayotining har bir sohasiga kirib

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6079-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son; 02.04.2021 y., 06/21/6198/0269-son.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018 y., 07/18/3724/1261-son, 31.10.2018 y., 06/18/5564/2137-son, 09.11.2019 y., 06/19/5870/4010-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.

kelishi, xususan bularning tarkibida tijorat sohasidagi o'zni ortishi yangi ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirdi va Internet tarmog'ining ahamiyatini yanada orttirdi. Mazkur jarayonlar axborotlashtirilgan jamiyatni vujudga keltirganligini, unda yangi virtual makonning paydo bo'lganligini hamda bunday jamiyat va makon globallashuvi yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida davlat organlari va xo'jalik subyektlari, shuningdek, aholining kundalik faoliyatida axborot texnologiyalarini keng tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi va ushbu davlat siyosati yangi tahrirda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra:

elektron tijorat sohasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

elektron tijorat sohasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalarni, zamonaviy texnologiyalarni va asbob-uskunalarini jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratish, zarur texnik va logistika infratuzilmasini shakllantirish;

elektron tijorat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

elektron tijorat sohasida raqobat muhiti uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

tadbirkorlik faoliyati subyektlarini ularning elektron tijorat sohasidagi faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy, iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy-texnikaviy va boshqa axborot bilan ta'minlash;

elektron tijorat sohasidagi ilmiy-texnika tadqiqotlarini rag'batlantirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

elektron tijorat sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish kabi islohotlar elektron tijoratda davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi<sup>3</sup>.

Xususan, ushbu amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini berdi. Ammo, shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to'laqonli bozorini yaratishga, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga to'siq bo'layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Xususan: *birinchidan*, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur'atlardagi o'zgarishlariga mos kelmaydi va o'z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta'minlamaydi;

*ikkinchidan*, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to'liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to'siqlari saqlanib qolmoqda;

*uchinchidan*, elektron tijoratni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo'lga qo'yilmagan, bu

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi 792-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son.

esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to'xtab turishiga olib kelmoqda;

*to'rtinchidan*, mahalliy to'lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo'qligi, mamlakat tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to'liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta'sir qilmoqda;

*beshinchidan*, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda;

*oltinchidan*, amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog'i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investisiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni cheklamoqda.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar (xizmatlar)ni Internet tarmog'i orqali realizatsiya qilish uchun zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari mahsulotlarini eksport qilish geografiyasini kengaytirish va hajmini oshirish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq elektron tijorat ishtirokchilari tomonidan xizmatlar ko'rsatish jarayonida axborot tizimlari tomonidan shakllantiriladigan, bitimlardagi tomonlarni identifikatsiyalash imkonini beruvchi elektron cheklar, kvitansiyalar, xabarlar va boshqa usullar tovarlar (xizmatlar) uchun to'lovlarni tasdiqlovchi kvitansiyalar, talonlar, chiptalar va boshqa hujjatlar ishlab chiqildi va takomillashtirildi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron tijorat bitimlarini amalga oshirishda to'lovlar virtual terminallar (E-POS) orqali xaridorga naqd pulni qabul qilganligi to'g'risida elektron chek yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatni majburiy yuborgan hamda inkassatsiya qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda pul mablag'larini xizmat ko'rsatuvchi bankka topshirish sharti bilan naqd pul shaklida qabul qilinishi mumkinligi belgilandi, bundan tashqari, elektron tijorat subyektlari savdo faoliyatini amalga oshirishda to'lov terminallaridan foydalangan holda tadbirkorlik subyektlarining korporativ bank kartalari, shuningdek, elektron to'lov tizimlari orqali to'lovlarni qabul qilish huquqiga ega bo'lishdi.

### **XULOSA**

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan-yilga o'sib bormoqda. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratmoqda. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan va amaldagi yo'ldan to'g'ri borish, kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha mavjud muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishida o'z aksini topadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

6079-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son; 02.04.2021 y., 06/21/6198/0269-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018 y., 07/18/3724/1261-son, 31.10.2018 y., 06/18/5564/2137-son, 09.11.2019 y., 06/19/5870/4010-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.

3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi 792-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son.



INNOVATIVE  
ACADEMY